

## **YONG‘IN KELIB CHIQISHINING ASOSIY SABABLARI VA ULARDAN HIMOYALANISH CHORALARI**

**Dadabaeva Naziraxon Abdurazaqovna**  
**Andjon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi**  
**Hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazi o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** Yong‘inni oldini olish va sodir bo‘lganda uning oqibatlarini bartaraf etish uchun insonlarda yetarli ko‘nikmalar bo‘lishi zarur. O‘tgan davrlarga qaraganda hozirgi kunda mamlakatimiz bo‘ylab juda ko‘p yong‘inlar bo‘layotganligini kuzatishimiz mumkin. Keyingi paytlarda yong‘inlar asosan ishlab chiqarish korxonalarida, savdo majmualarida va bozorlarda sodir bo‘layotganligini guvohi bo‘lib turibmiz. Maqolada aholi va tovar moddiy boyliklarni yong‘in va portlashdan himoya qilish tadbirlari, yong‘in sodir bo‘lish holatini baholash, xavflar mavjudligi va ular qanday paydo bo‘lishini aniqlash to‘g‘risida so‘z yuritilib, yong‘inni oldini olish yuzasidan tavsiyalar berilgan. Shu bilan birga yong‘in sodir bo‘lgan aholini va moddiy boyliklarni ko‘chirish tadbirlari haqida bayon qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Portlash, yong‘in, evakuatsiya, muhofaza tadbirlari, bino va inshootlar, to‘kilgan suyuqlik, yong‘in o‘chog‘i, o‘t o‘chirish, yo‘riqnoma, ob‘ekt, yuqori tayyorgarlik, evakuatsiya yo‘llari, pog‘ona, yuqori konsentratsiyali tutunli karidor.

Respublikamiz hududida ko‘plab yong‘in chiqishi va portlash hodisalari yuz berishi mumkin bo‘lgan xalq xo‘jaligi ob‘ektlari mavjud bo‘lib, bunday favqulodda vaziyatlar yuz berishi natijasida xalq xo‘jaligiga katta iqtisodiy zarar yetkazilishi, qurbonlar va turli tan jarohat olganlar soni ko‘plab bo‘lishi mumkin.

**Yong‘in** - bu nazorat qilib bo‘lmaydigan hodisa bo‘lib, bebaho moddiy va madaniy boyliklarni bir daqiqada yo‘q qiluvchi ofat, ayniqsa u fuqarolarning joniga kulfat keltiruvchi favqulodda vaziyatdir.

Yong‘inlar mahalliy (lokal), yirik ko‘lamli va halokatli yong‘inlarga bo‘linadi.

**Mahalliy** - turar joy, korxonalar, tashkilot, muassasalarning aloxida binolarida sodir bo‘ladigan yong‘inlar. Ularni bir yoki bir necha soat davomida o‘chirish mumkin.

**Yirik ko‘lamli** - bir necha uylarni, korxonalarining bir nechta sexlarini, burg‘ulash minoralari, neft omborlarini qamrab oluvchi yong‘inlar katta moddiy zarar yetkazadi. Bunday yong‘inlarni bir necha sutka davomida ko‘plab texnik vositalar yordamida o‘chirish mumkin.

**Halokatli** - korxonalar va (yoki) transportdagi yong‘inlar. Bunda ko‘plab odamlar xalok buladi. Yong‘inlar ko‘p sabablarga ko‘ra sodir bo‘ladi. Yozda o‘rmonlarda, ekinzorlarda, qishda esa turar joylarda, korxonalarda ko‘plab yong‘inlar kelib chiqadi. Ishlab chikarish jarayonida ma‘lum bir sharoitlarda yogoch, ko‘mir, aluminiy, un, don changlari, shuningdek paxta, kanop changlari xavfli bo‘lib yonib ketishi mumkin. Skipidar, naftalin yonib ketish xossasiga ega. O‘z-o‘zidan yonib ketish barcha qattiq yonuvchi modda va materiallarga xos.

**Yong‘inni o‘chirish** - odamlar va hayvonlar xavfsizligini ta‘minlash, moddiy boyliklarni qutqarish va yong‘inni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan tezkor-taktik harakatlar va boshqaruv qarorlari kompleksi.

Respublikamizda yong‘in va portlash xavfi bor ob‘ektlar juda ko‘p bo‘lib, ular aholi va xudud uchun xavf-xatarlar manbai hisoblanadi va muayyan sharoitda favqulodda vaziyatga aylanib ketishi mumkin.

**Yong’in va portlashlarning asosiy sabablari:**

- yong’in xavfsizlik qoidalariga amal qilmaslik;
- fuqarolarning loqaydligi, e’tiborsizligi ;
- elektr simlarining nosozligi;
- gaz, ko‘mir, o‘tin bilan isitiladigan vositalar;
- bolalarning o‘t bilan o‘ynashlari;
- qasddan o‘t qo‘yishlar.

Eng asosiysi shundaki, fuqarolarimizning o‘zlari yong’in sababchisi bo‘lib qolishadi. Shu sababdan ham shiorimiz; “Yong‘inni oldini olmoq uni o‘chirishdan afzalroqdir”.

**Yong‘inni tez keng tus olishi sabablari:**

1. Yong‘inning sodir bo‘lganligi omili.
2. Yong‘inning sodir bo‘lgan joylarda, yon-atrofnig qizib ketishi.
3. Yong‘inda yonayotgan jismlardan chiqayotgan tutun va zaxarli moddalar.
4. Yong‘inning sodir bo‘lgan joylarda va tevarak-atroflarda havo haroratining o‘zgarishi.

**Yong‘inning sodir bo‘ladigan joylar ikki turga bo‘linadi:**

- Davlat tashkilotlari;
- Fuqarolarning yashash joylari

**Yong‘in kengligi jihatidan uch turga bo‘linadi:**

- Kichik xajmda, o‘rta xajmda, katta xajmda.

**Yong‘inning tez keng tarqab ketishining asosiy sabablari va chegaralari:**

- Inshootlarning loyixasini ishlab chiqishda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar;
- Inshootlar qurilishida Qurilish me‘yorlari va qoidalari, davlat standartlariga rioya qilmaslik;
- yong‘in nazorati, gazdan foydalanishni nazorat qilish xodimlari tomonidan ko‘rsatilgan yong‘inni oldini olish tadbirlarining bajarilmasligi;
- Fuqarolarning yong‘in sodir etilganda o‘z vazifalarini bilmasliklari va vahimaga tushishlari;
- Bolalarning yong‘in chiqishiga olib keluvchi o‘yinlariga beparvolik;
- Yong‘inga qarshi kurashda qo‘llaniladigan qutqaruv vositalarining kamligi.

**Yong‘inning oldini olish chora-tadbirlari.**

- Tashkilot va muassasalarda doimiy ravishda tekshiruvlar o‘tkazish, yong‘in chiqishi va portlashlarga sabab bo‘luvchi kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish;
- Qurilish me‘yorlari va qoidalari, davlat standartlariga doir maxsus buyruqlarni so‘zsiz bajarish;
- Yong‘indan muhofaza qiluvchi idoralarning xodimlari bergan ko‘rsatmalarni bajarish;
- Yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish
- Muntazam tarzda davlat maxsus tekshiruv idoralari tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish va ularga yo‘l qo‘ymaslik;
- Muntazam ravishda aholini yong‘inning oldini olish chora-tadbirlarini bajarishga va boshqalardan ham talab qilishga o‘rgatish

Yong‘in - portlash xavfi yuqori bo‘lgan korxonalarda harbiylashgan va professional yong‘inni o‘chirish bo‘limlari tuzilgan boshqa korxonalar, muassasa va tashkilotlarda yong‘in muhofazasi tuzilmalari (shtatdan tashqari) tuziladi. Yong‘in bo‘lgan vaziyatlarda uni tezkorlik bilan o‘chirishni tashkil qilish uchun professional yong‘inni o‘chirish zvenolari aholi bilan

hamkorlikda, yong‘inni o‘chirish, suv bilan ta‘minlash, himoya va qo‘riqlash guruhlariga bo‘linib yong‘inni o‘chirishga kirishadi.

Tez yonuvchi yoqilg‘ilar va moylar saqlanadigan idishlar hamda omborxonalaridagi yong‘inni o‘chirish uchun o‘tga qarshi ko‘pik hujumini tashkil qilish va neft mahsulotlari yonayotgan rezervuarlardan zahira qismlariga qayta haydash, rezerv idishi og‘zilarini va idish teshiklaridan chiqayotgan olovni qopqoq yoki ho‘l brezent bilan yopib o‘chirish lozim.

To‘kilgan suyuq yoqilg‘ilardan paydo bo‘lgan mayda yong‘inlar, ko‘pikli o‘t o‘chirish jihozlari bilan bartaraf qilinadi hamda qum, tuproq, kigiz va ho‘l brezentlar yordamida o‘chiriladi.

Yong‘in o‘chog‘iga yaqin turgan yonilg‘i idishlari tezda suv bilan sovutilishi kerak, yoqilg‘ilar esa xavfi hududdan uzoqlashtirilishi lozim.

Yong‘in va portlash xavfi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish ob‘ektlarida yong‘in va uning oldini olish aholi va ishchi hodimlarni yong‘indan muxofaza qilish kunlik kompleks tadbirlar majmuasi bo‘lib:

- yong‘in va portlash xavfi yuqori bo‘lgan ob‘ektlarni aholi yashash qo‘rg‘onlarida qurmaslik, omborxona va mahsulotlarni shahar tashqarisiga chiqarish, yong‘in xavfsizligi buyicha kapital ta‘mirlashga belgilangan mablag‘ fondini ajratish, ishlab chiqarishni ko‘paytirish va texnologik jarayonlarni takomillashtirib borish;

- yong‘in va portlash xavfining oldini olish maqsadida belgilangan kunlik tartibni ta‘minlash, yong‘in va portlash xavfining oldini olish maqsadida kompleks targ‘ibot tadbirlarini ishlab chiqish va bajarish;

- kompleks tadbirlarni yong‘in va portlash xavfi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish ob‘ektlarida, favqulodda vaziyatlar bo‘limlari, yong‘in xavfsizligi bo‘yicha muxandis ishlab chiqadi va uning bajarilishi yuzasidan nazorat olib boradi.

Ob‘ektga o‘rnatilgan birlamchi o‘t o‘chirish, avtomatik o‘t o‘chirish moslamalarini va aloqa hamda xabar berish moslamalarining ishchi holatini tekshirib boradi. Shuningdek, ob‘ekt atrofida joylashgan aholi yashash qo‘rg‘onlari bilan aloqa mavjudligi yuzasidan nazorat olib boradi. Ishchi xodimlarni va maxsus otryadlarni maxsus keyim va himoya vositalarini ishlatish tartibi bo‘yicha o‘qitish va tayyorlash ishlarini tashkil etadi.

Aholi uchun maxsus bukletlar tayyorlaydi. Ishchilarni muhofaza qilish uchun evakuatsiya rejasini ishlab chiqadi va doimiy aniqliklar kiritib boradi. Yong‘in va portlashga xavfi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish ob‘ektlarida ishchi xodimlarni muhofaza qilish maqsadida himoya inshootlari quriladi.

Yong‘in va portlashga xavfi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish ob‘ektlari yonidan qurilishi rejalashtirigan aholi yashash qo‘rg‘onlari yong‘inga bardoshli qurilish materiallaridan quriladi. Yong‘in sodir bo‘lganda, uni o‘chirishga qo‘lay muhit bo‘lishi uchun bino atrofi va kirish yo‘laklari qulay bo‘lishi ta‘minlanishi lozim. Ob‘ekt hududida yong‘in gidrantlari o‘rnatiladi. Aholi yashash qo‘rg‘onlarida qo‘shimcha suv rezervuarlari tashkil etiladi va erkin harakatlana oladigan asosiy va yordamchi yo‘llar belgilanishi shart (asosiy yo‘l 6 m, yordamchi yo‘llar 4 m.)

Barcha texnik va ishchi xodimlar bajarishi majbur bo‘lgan yong‘in va portlashga xavfi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish ob‘ektlari, chaqmoqdan himoyalani moslamalari o‘rnatilgan bo‘lishi kerak. Ob‘ekt rahbari yong‘in xavfsizlik tartibi bo‘yicha o‘zining buyrug‘ini ishlab chiqadi va barcha texnik hamda ishchi xodimlar bajarishi quyidagicha majbur etib belgilanganadi: ishchi xonalar va binolarning joylashuvi, undagi tartib;

texnologik operatsiyalarni bajarish tartibi; chekish va dam olish joyi; ish vaqti tugagandan keyin xonalarni teshirish va yopish tartibi; yong‘in sodir bo‘lganda ishchi xodimlarni va moddiy boyliklarni evakuatsiya qilish tartibi;

Yong‘in sodir bo‘lganda evakuatsiya va yong‘inni o‘chirish rejasini oldindan ishlab chiqish kerak. Texnik va ishchi xodimlarni tayyorlash maqsadida rejaga asosan, doimiy o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazilishi lozim.

Yong‘in xavfsizlik xizmatlari “yuqori tayyorgarlik” tartibiga o‘tkaziladi va qutqaruv hamda yong‘inni o‘chirishlari, ishchi xodimlarni va moddiy boyliklarni evakuatsiya qilish ishlari olib boriladi. Yong‘in joyiga tez tibbiy yordam va sanitariya otryadlari jo‘natilib yong‘in joyi o‘rab olinadi.

Ishlab chiqarish ob‘ektlarida ishchi xodimlar va moddiy boyliklarni yong‘indan muhofaza qilish maqsadida quyidagi yo‘riqnomaga amal qilishi shart:

doimiy ravishda hududni ishlab chiqarish qoldiqlari va chiqindilardan tozalash;  
yog‘lash materiallarini maxsus taralarda saqlash;  
yong‘in o‘chirish moslamalari, bino va inshootlar hamda evakuatsiya yo‘laklariga erkin emaklab borish imkoniyati mavjudligi;  
evakuatsiya yo‘laklari, kirish va chiqish eshiklari, kirish yo‘laklarda erkin haraktlanish;  
yog‘och qurish konstruksiyasida belgilangan me‘yorlarga rioya qilish; evakuatsiya yo‘laklariga mebel va boshqa erkin evakutsiya qilishga halaqit qiladigan inventarlarni o‘rnatmaslik;

ish kuni tugagandan keyin tez yonuvchi moddalarni olib chiqish va beligangan joyga topshirish;

ish kuni tugagandan keyin elektr jihozlarini va elektr manba bilan ishlaydigan moslamalarni o‘chirish; ishlab chiqarish jaryonida ishlatilmaydigan elektr jihozlarini ishlatishga ruxsat bermaslik;

yaroqsiz va qo‘l bola elektr asboblarni ishlatishga ruxsat bermaslik; devor va boshqa qurilish konstruksiyalarni yong‘inga chidamsiz materiallar bilan yopish;

avariya yoritish chiroqlarini doimiy ishchi holatda saqlash.

Shuning uchun barcha ma‘muriy binolarda, ishlab chiqarish korxonalarining binolarida, davolash, ommaviy tomosha, yotoq xona binolarida yong‘in chiqqanda, binoda bo‘lgan insonlarni evakuatsiya (ko‘chirish) qilish chizmasi hammaga ko‘rinadigan joylarga ilib qo‘yiladi, insonlarning zudlik bilan binoni tark etishlari uchun barcha o‘tish joylari, yo‘laklar, dahlizlar ravon bo‘lishi, yo‘laklarda insonlarga halakit beradigan predmetlarning bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

### **Yong‘in yuz berganda evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish**

Bino va inshootlarda insonlarning harakatlanishi zaruriy funksional jarayon hisoblanadi. Bu jarayonni amalga oshirishda, insonlarning harakati me‘yoriy yoki majburiy holda bo‘lishi mumkin. Birinchisida insonlarning bino va inshootlarda kundalik ehtiyoj yuzasidan me‘yoriy harakatlanibilar ifodalansa, ikkinchisida bino yoki xonalardan yong‘in yoki zilzila sharoitida insonlarni xavfli muhitdan - xavfsiz joyga majburiy ko‘chish uchun mo‘ljallangan harakati tushuniladi. Majburiy evakuatsiya jarayoni binoning qavatiga ko‘ra ikkita yoki to‘rtta pog‘onada o‘tkaziladi.

**Birinchi pog‘ona** - binoning oxirgi qavatida joylashgan barcha xonalardagi insonlarning yo‘lakka chiqish harakatidir.

**Ikkinchi pog‘ona** - insonlarning xonadan chiqish eshigidan zinapoyagacha bo‘lgan masofani bosib o‘tishi uchun mo‘ljallangan harakati kiradi. Bunda harakatlanuvchi oqim yo‘lak bo‘ylab o‘tadi. Agar bino bir qavatli bo‘lsa, evakuatsiya ikkinchi pog‘onadan so‘ng tugashi mumkin.

**Uchinchi pog‘ona** - insonlarning yuqori qavatning zinapoyasiga kelishidan, birinchi qavatdagi zinapoyadan chiqish

eshigigacha bo‘lgan masofani bosib o‘tish uchun qilingan harakati kiradi.

**To‘rtinchi pog‘ona** - insonlarning zinapoyadan tushgandan keyin ayvon va yo‘laklar orqali tashqariga chiqish eshigigacha bo‘lgan masofani bosib o‘tishiga qaratilgan harakati kiradi. Insonlarning binodagi harakatlanish jarayoni, ayniqsa, yong‘in yoki biror tabiiy ofat paytida keskin oshadi. Bunday hollarda harakatlanishni to‘g‘ri ta‘minlash insonlar hayotini saqlab qolish imkoniyati oshadi. Har qanday xonada ham yong‘in sodir bo‘lish ehtimoli mavjud ekanligini inobatga olsak, barcha xonalarda evakuatsiya yo‘llarini rejalashtirish majburiy tadbirlardan hisoblanadi.

**Evakuatsiya yo‘llari** - deb, bino va inshootlarda xavfli holat yuzaga kelganda, insonlarni bino ichida joylashgan doimiy ish joyidan, qisqa vaqt ichida tashqariga olib chiqadigan elementlar tizimiga aytiladi. Bunday elementlar yo‘laklar, dahliz, zinapoyalar va maydonchalar, darvoza xonalarning chiqish eshiklari kiradi. Ular orasidagi masofa quyidagi formula bilan topiladi: Evakuatsiya vaqtida binodan chiqish eshiklari ikkitadan kam bo‘lmagan holda loyihalashtiriladi. Xonalardan chiqish eshiklari va binodan chiqish darvozalari bir - biridan ma‘lum masofada uzoqlashtirilgan bo‘ladi.

Evakuatsiya yo‘llarining tarkibiy qismlari - binolarning yer osti qavatlaridan evakuatsiya qilishda insonlarning harakat yo‘nalishi bo‘ylab, yonuvchi ashyolar saqlanadigan omborxonalar mavjud bo‘lmasa, umumiy zinapoya orqali chiqishga ruxsat etiladi.

Agar yerto‘lada bunday omborlar mavjud bo‘lsa va ushbu omborlar uchun alohida chiqish yo‘li asosiy evakuatsiya yo‘lidan o‘tda yonmaydigan devor bilan to‘silgan bo‘lsagina, ulardan evakuatsiya qilishda umumiy zinapoyadan foydalanishga ruxsat beriladi. Agar yer to‘lada joylashgan xonaning sathi 300 m<sup>2</sup> gacha bo‘lib, undagi kishilar soni 15 kishidan oshmagan bo‘lsa, xonadan chiqish oson bo‘lishi uchun maxsus moslamalar mavjud bo‘lgan taqdirda, tik o‘rnatilgan narvon bilan yerto‘la tomidagi 0,9x0,9 m<sup>2</sup> o‘lchamli tuynuk orqali yoki tashqi devorda o‘rnatilgan o‘lchami 0,75x1,5 m<sup>2</sup>ga teng bo‘lgan deraza orqali evakuatsiya qilish mumkin bo‘ladi.

Binoning qaysi qavatda bo‘lishidan qat‘iy nazar, agar xonadan chiqish eshigi, shu qavatdagi ikkita evakuatsiya chiqish darvozasiga olib boradigan bo‘lsa, bu xonadan chiqish uchun bitta evakuatsiya eshigi qo‘yilishi mumkin. Faqat xonadagi eng uzoq joylashgan ish joyidan eshikkacha bo‘lgan masofa 25 metrdan uzoq bo‘lmasligi va bir smenada ishchilar soni, A va B toifadagi xonalarda 5 kishidan, V toifadagi xonada 25 kishidan, G va D toifadagi xonalarda 50 kishidan oshmasligi shart.

Evakuatsiya yo‘nalishi bo‘ylab joylashgan yo‘l qismlari (oralik yo‘laklar, yo‘lak, zinapoyalar va h.z.) har xil texnik qurilmalar bilan to‘smasligi, balki aksincha, yo‘l - yo‘lakay qo‘shilib boruvchi insonlar oqimini hisobga olgan holda kengayib borishi tabiiy yoki sun‘iy (avariya) yorug‘lik bilan ta‘minlangan bo‘lishi inobatga olinishi lozim bo‘ladi.

Ishlab chiqarish va madaniy - maishiy xonalardan yong‘inni o‘chirish vaqtida yong‘in xonasidan insonlarni va moddiy boyliklarni muvaffaqiyatli evakuatsiya qilishni ta‘minlash muhim masala hisoblanadi. Ayrim xollarda yong‘in chiqishining sabablari olov bilan

ishlatiladigan ishlab chikarish uskunalaridan foydalanishda xosil bo‘ladigan alanga, nur issiqligi, isitish asboblari, elektr va gaz chilangarlik apparatlari ham bo‘lishi mumkin.

**Yong‘in sodir bo‘lganda quyidagi qoidalarni esda tutish lozim:**

alangani o‘chirishning iloji bo‘lsa, yaxshisi olovga qarshi borish, bunda uning tarqalish maydonini kamaytirishga va olovni yonuvchi materiallar yo‘q joyga xaydash kerak, yo‘laklarda, tomda, yerto‘lada harakat qilganda arqonlardan foydalanish lozim, shunda siz orqaga qaytish yo‘lini osongina topa olasiz;

Yonish manbai yo‘q qilingach, boshka joylarni tekshirib chiqish kerak bo‘ladi;

O‘tni o‘chirib bo‘lmasa, sekin-asta chekinish, biroq o‘tni nazorat ostida ushlab turish kerak;

Binolarning qulab tushin ehtimolini ham esdan chiqarmaslik lozim;

Yonayotgan binodan chiqib ketishga imkoniyat bo‘lmasa, polga yotib olish va nafas olish organlarini nam sochiq bilan berkitish kerak, u yerda tutun kam va kislorod ko‘prok (burchaklarda), tutun va zaharli gazlar alanga «tili»dan ham xavfliroqdir; eng muximi vaximaga tushmaslik lozim, uylab qilingan harakat hayotingizni saklab kolish uchun ko‘proq imkoniyat yaratadi. Texnologik uskunalarini loyihalash va ulardan foydalanishda muxandis-texnik tadbirlarini amalga oshirish, shuningdek yong‘in xavfsizligi qoidalariga amal qilish yong‘inning oldini oladi. Yong‘in va portlash xodisasi bir - biridan ajralmas. Ayrim hollarda portlash yong‘inga sabab bo‘lsa, ba‘zan yong‘in vaqtida portlash sodir bo‘lishi mumkin.

**Portlash** - bu qisqa vaqtning o‘zida chegaralangan xajmdagi katta miqdordagi quvvatning ajralib chiqishidir.

Portlash gazlarning qattiq qizishi oqibatida yuqori bosim natijasida sodir bo‘ladi.

Yong‘in vaqtida - kuchli yong‘ini o‘chirishga harakat qilish, tutunli zinapoyadan chiqishga harakat qilish, liftidan foydalanish, tarnov quvuridan yoki qo‘l bola arqon bilan yuqori qavatli uydan tushishga harakat qilish, eshik va derazalarni ochish - havo kirishini tezlashtiradi va natijada yong‘in kuchayadi.

Portlashning zarar yetkazuvchi omillari- Zarba mavji (zarba to‘lqinlari) va siniq parchalarning sochilishi.

Bular birlamchi holatlar bo‘lsa, ikkilamchi portlashlar, yong‘inlar, falokatlar, kimyoviy va radiatsion shikastlanishlar, keng tusda to‘g‘onlarning buzilishi va suv toshqinlariningsodir etilishi, binolarning qulashidir.

Inson yonayotgan bo‘lsa - yerga dumalatish, atrofdagi mavjud narsalar yordamida har qanday usul bilan yonayotgan kiyimni o‘chirish, insonning qochishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak, chunki ushbu holat shamolning tezlashishi va yong‘in kuchayishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, yong‘inni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rish va yong‘inni o‘chirish usullarini bilish mavsadga muvofiqdir.

Zero, yong‘inni o‘chirishi uchun 1-daqiqada bir piyola, 2 daqiqada esa bir chelak suv yetarli bo‘lishini, 3 daqiqada esa bir sisterna suv ham yetmay qolishi mumkinligini yodda saqlamog‘imiz zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2013 yil 28 martdagi 89-son qarori.

2. Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori № 455, 27 oktabr,

3. O‘zbekiston Respublikasining “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2009 yil 24 iyunda qabul qilingan, Senat tomonidan 2009 yil 28 avgustda

4. 2022 yil 17 avgust kunidagi O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 790-sonli

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat yong‘in nazorati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida "2013 yil 4 oktabrdagi 272-son qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi favkulodda vaziyatlar vazirining 2019 yil 23 avgustdagi "O‘zbekiston Respublikasi Favkulodda vaziyatlar vazirligi tizimida profilaktikani yanada takomillashtirish to‘g‘risida" 430-sonli buyrug‘i.